

30-Oktyabr, 2025-yil

**HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI SUBYEKTLARI MANSABDOR
SHAXSLARINING AHOLI OLDIDA MUNTAZAM HISOBOT BERISH
FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.**

Yusupov Azimboy Komil o‘gli

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IIV AKADEMIYASI KURSANTI

Kalit so‘zlar: *Huquqbuzarliklar profilaktikasi, hisobot berish, mansabdor shaxslar, jamoatchilik nazorati, ochiqlik, huquqiy madaniyat, ishonch, davlat organlari, fuqarolik jamiyati, samaradorlik, xorij tajribasi.*

Annotatsiya: *Maqolada huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari mansabdor shaxslarining aholiga muntazam tarzda hisobot berish faoliyatini takomillashtirish zarurati ilmiy-nazariy va amaliy nuqtai nazardan chuqur o‘rganiladi. Jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning ijtimoiy salbiy oqibatlarini kamaytirish va huquqiy madaniyatni oshirishda profilaktika subyektlari faoliyati muhim o‘rin tutadi. Ayni paytda, bu subyektlarning faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini yo‘lga qo‘yish, ular tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish va shaffofligini ta‘minlash – zamonaviy boshqaruv tizimi talablaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada ushbu yo‘nalishda mavjud muammolar, xususan, hisobot berish mexanizmlarining aniq tartibga solinmagani, mansabdor shaxslarning aholi bilan muloqoti sustligi va mavjud qonunchilikda ochiq-oydinlik prinsiplarining to‘laqonli aks etmagani singari masalalar tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada ilg‘or xorijiy tajribalar, ya‘ni demokratik davlatlar amaliyotida mansabdor shaxslarning aholi oldida hisobdorligi qanday yo‘lga qo‘yilganligi o‘rganilib, ularning ijobiy jihatlarini milliy huquqiy tizimimizga moslashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi. Muallif tomonidan jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish, axborot olish erkinligi tamoyillarini mustahkamlash, davlat organlari va fuqarolar o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni mustahkamlash borasida aniq huquqiy va tashkiliy choralar taklif qilinadi. Ayniqsa, profilaktika subyektlari tomonidan yillik yoki choraklik hisobotlarning rasmiy veb-saytlar, ommaviy axborot vositalari yoki jamoatchilik eshituvlari orqali keng jamoatchilikka yetkazilishi tizimi yaratish zarurati alohida e‘tiborga olinadi. Maqolada shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni, “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi Qonuni hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida mavjud holat huquqiy jihatdan tahlil qilinib, ularning takomillashtirilishi zarurligi asoslab beriladi. Xulosa tariqasida, aholi oldida muntazam hisobdorlik nafaqat davlat organlarining samarali faoliyat yuritishini ta‘minlaydi, balki fuqarolarning huquqiy faolligini oshiradi, ularning davlat boshqaruvidagi ishtirokini mustahkamlaydi.*

Ключевые слова: *Профилактика правонарушений, должностные лица, отчетность, открытость, общественный контроль, правовая культура, доверие, гражданское общество, эффективность, законодательство, международный опыт.*

Аннотация: В статье всесторонне исследуется необходимость совершенствования деятельности должностных лиц субъектов профилактики правонарушений в части регулярного предоставления отчетности перед населением. Отчетность и прозрачность деятельности государственных органов являются важнейшими условиями формирования открытого и демократического общества. В этом контексте обеспечение подотчетности субъектов профилактики правонарушений рассматривается как действенный инструмент укрепления общественного контроля, повышения правовой культуры граждан и эффективности профилактических мер. Автор подробно анализирует существующие проблемы в данной сфере, включая отсутствие четко установленного механизма отчетности, слабую коммуникацию между должностными лицами и гражданами, а также несовершенство нормативно-правовой базы в части реализации принципов открытости и гласности. На основе анализа законодательства Республики Узбекистан, включая Закон «О профилактике правонарушений» и Закон «Об открытости деятельности государственных органов и организаций», дается оценка действующему положению, выявляются пробелы и противоречия. Особое внимание уделено международному опыту – рассматриваются практики стран с высоким уровнем открытости власти, где государственные служащие обязаны регулярно отчитываться перед гражданами, включая проведение общественных слушаний, публикацию отчетов в интернете, участие в открытых сессиях. Эти примеры предложены для адаптации и внедрения в национальную систему. Автор предлагает конкретные организационно-правовые меры, направленные на институционализацию отчетности: разработку типовых форм отчетов, внедрение цифровых платформ для обратной связи, обязательность периодических отчетов в открытом доступе. В заключение подчеркивается, что систематическая отчетность должностных лиц перед населением способствует не только росту доверия к органам власти, но и активному вовлечению граждан в процессы управления, повышению ответственности исполнителей, а также укреплению основ правового государства.

Keywords: Crime prevention, public reporting, government officials, transparency, public oversight, legal culture, trust, civic engagement, governance, accountability, international practices.

Annotation: This article provides an in-depth analysis of the need to improve the mechanisms for regular public reporting by officials who are subjects of crime prevention in Uzbekistan. In modern governance, public accountability and transparency are critical principles that foster democratic engagement and institutional trust. The article argues that ensuring systematic reporting by public officials to the population is not only a legal obligation but also a vital tool to enhance public oversight, strengthen legal awareness, and improve the effectiveness of preventive measures. The study explores current challenges in this domain, including the lack of a clearly defined reporting system, weak communication between officials and citizens, and insufficient legal frameworks to ensure transparency and

openness. Using the legal basis provided by the Law of the Republic of Uzbekistan "On Prevention of Offenses" and the Law "On Openness of Activities of State Bodies and Organizations", the article conducts a legal and practical assessment of the existing system. It identifies legal gaps and institutional inefficiencies that hinder effective public accountability. Furthermore, the article draws upon international experiences from democratic countries where public officials are legally required to report periodically to the public through various mechanisms such as public hearings, official websites, media outlets, and digital feedback platforms. These practices are analyzed for their potential adaptability to Uzbekistan's legal and administrative context. The author presents several actionable recommendations aimed at institutionalizing public reporting, such as establishing standard formats for reports, setting reporting schedules (quarterly or annually), promoting open access to performance data, and involving civil society in oversight functions. In conclusion, the paper emphasizes that regular and transparent reporting by crime prevention officials is a key component in building a responsive, accountable, and people-centered governance system. It not only promotes trust between the state and society but also empowers citizens to participate more actively in decision-making processes.

KIRISH

Mustaqil O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida davlat boshqaruvi tizimida ochiqlik, shaffoflik, fuqarolarga hisobdorlik va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish tamoyillariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, so‘nggi yillarda huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida davlat organlari va mansabdor shaxslarning fuqarolar oldida ochiq va hisobdor bo‘lishi masalasi markaziy o‘ringa chiqmoqda. Bu holat, ayniqsa, jamiyat xavfsizligi, huquqiy tartibotni ta‘minlash va jinoyatchilikning oldini olish kabi dolzarb sohalarda faoliyat olib borayotgan mansabdor shaxslar uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Huquqbuzarliklarning profilaktikasi – bu nafaqat jinoyat va boshqa huquqbuzarliklarning sodir etilishining oldini olishga yo‘naltirilgan tizimli chora-tadbirlar majmui, balki jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish, aholining davlat idoralari bilan o‘zaro ishonchli aloqalarini mustahkamlash vositasidir. Mazkur jarayonda huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlarining, ya’ni ichki ishlar, prokuratura, mahalla idoralari, ta’lim muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa vakolatli organlarning roli beqiyosdir. Ularning har biri o‘z vakolati doirasida huquqbuzarliklarni aniqlash, oldini olish, tushuntirish ishlarini olib boradi, lekin bu jarayonning real samaradorligi faqat ularning faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati mavjud bo‘lgan taqdirdagina ta‘minlanadi. Shu nuqtai nazardan, profilaktika subyektlari mansabdor shaxslarining aholiga muntazam hisobot berib borishi, ularning faoliyatining natijalarini ochiq tarzda e’lon qilishi, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yuzasidan jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda ish yuritishi nafaqat demokratik boshqaruvning talabi, balki fuqarolarning konstitutsiyaviy

30-Oktyabr, 2025-yil

huquqlaridan biridir. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahririda ham davlat organlarining fuqarolar oldida ochiqqligi va hisobdorligi alohida prinsip sifatida mustahkamlandi. Bundan tashqari, “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqqligi to‘g‘risida”gi Qonun va “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunlarda ham ushbu prinsiplarning amaliy ijrosi belgilanmoqda. Biroq, amaldagi holat tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, aksariyat hollarda huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlarining mansabdor shaxslari tomonidan aholiga aniq va tizimli tarzda hisobot berish amaliyoti yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Ko‘plab hududlarda bu boradagi ishlar faqat shakllangan me‘yorlar asosida emas, balki umumiy ko‘rinishdagi axborotlar bilan cheklanib qolmoqda. Shuningdek, jamoatchilik ishtirokini ta‘minlashda real mexanizmlar yetarli darajada ishlab chiqilmagan, axborotlar berish shakllari birxilligi, hududlar kesimida bir-biridan farqlanishi, axborotlar sifati va miqdorining noto‘g‘ri belgilanayotganligi kuzatilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini cheklab qo‘ymoqda. Ushbu maqolada, aynan huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari mansabdor shaxslarining aholi oldida muntazam hisobot berish faoliyatini takomillashtirish zarurati tahlil qilinadi. Hisobot berishning huquqiy, institutsional va tashkiliy asoslari ko‘rib chiqilib, mavjud kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari aniqlanadi. Shuningdek, ilg‘or xorijiy tajriba misolida samarali hisobot mexanizmlari tahlil qilinadi hamda ularni milliy tizimga moslashtirish bo‘yicha amaliy takliflar ilgari suriladi. Maqolada, shuningdek, axborot texnologiyalari yordamida jamoatchilik bilan samarali muloqot olib borish, fuqarolarning fikr va takliflarini hisobga olgan holda davlat organlari faoliyatini tashkil etish g‘oyalari ham o‘rganiladi. Shu orqali, maqola mavzusining dolzarbligi nafaqat amaldagi qonunchilikni takomillashtirish, balki davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni mustahkamlash, fuqarolarning huquqiy faolligini oshirish, eng asosiysi, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va ijtimoiy xavfsizlikni ta‘minlash kabi ustuvor maqsadlarga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

ASOSIY QISM

Huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida faoliyat yuritayotgan subyektlar tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligi, asosan, ularning ochiqqligi, jamoatchilik bilan hamkorligi va hisobdorligiga bog‘liq. Mavjud amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha davlat siyosatini olib borayotgan mansabdor shaxslar, ayniqsa, ichki ishlar organlari, prokuratura, mahalla idoralari, ta‘lim va sog‘liqni saqlash muassasalari vakillari ko‘p hollarda o‘z faoliyatining natijalari haqida keng jamoatchilikka muntazam va tizimli tarzda axborot bermaydilar. Bu esa, aholining davlat tizimiga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi, profilaktika ishlarining samaradorligini cheklaydi va fuqarolarning bu boradagi ishtirokini susaytiradi. Huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari faoliyatining ochiqqligi ularning aholiga axborot yetkazish darajasi va shakllari bilan chambarchas bog‘liq. Ayni paytda, bu subyektlarning hisobot berish faoliyati, ko‘p hollarda, formal yondashuv asosida amalga oshirilmoqda. Hisobotlar odatda ichki idoraviy tuzilmalarga taqdim etiladi yoki belgilangan rejalarga binoan yuqori turuvchi tashkilotlarga yuboriladi. Fuqarolar esa bu jarayonda to‘liq

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Oktyabr, 2025-yil

axborotga ega emas, ularning fikr va takliflari inobatga olinmaydi. Holbuki, huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha olib borilayotgan ishlar bevosita fuqarolarning hayoti va xavfsizligiga daxldor bo'lib, ularning bu jarayonda ishtirok etishi demokratik boshqaruvning muhim mezonlaridan biri hisoblanadi. Joriy qonunchilikda, xususan, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunda, profilaktika subyektlari sifatida turli organlar, jumladan, ichki ishlar, prokuratura, sud, mahalla, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlari ko'rsatilgan. Ushbu qonunning 8-moddasida mansabdor shaxslarning huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vazifalari belgilangan bo'lsa-da, ularga yuklatilgan faoliyatning jamoatchilik oldida ochiqqligini ta'minlash, muntazam hisobot berish tartiblari aniq ko'rsatib o'tilmagan. Shuningdek, "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqqligi to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, davlat idoralari aholiga o'z faoliyati to'g'risida axborot berishi shart etib belgilangan. Biroq bu qonun ham profilaktika subyektlarining faoliyati uchun alohida mexanizm yaratmaydi. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun bir qator tashkiliy-huquqiy va institutsional chora-tadbirlar zarur. Birinchi navbatda, har bir hududda huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan choraklik yoki yillik hisobotlar tayyorlanib, ular mahalliy kengashlar, jamoatchilik eshituvlari, fuqarolar yig'inlari va ommaviy axborot vositalari orqali keng ommaga e'lon qilinishi lozim. Bunday ochiqlik fuqarolarning o'z hududida nima ishlar amalga oshirilayotganidan xabardor bo'lishiga, mavjud muammolar bo'yicha bevosita takliflar berishiga zamin yaratadi. Ikkinchidan, profilaktika subyektlari mansabdor shaxslarining hisobot berish faoliyatini yagona tizim asosida tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjat – "Hisobot berish tartibi to'g'risida nizom" qabul qilinishi maqsadga muvofiq. Ushbu nizomda kimlar, qanday muddatlarda, qanday shakllarda aholi oldida hisobot berishi belgilab qo'yilishi zarur. Bunday yondashuv hisobot jarayonini bir xil standart asosida tashkil etishga yordam beradi. Uchinchidan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan holda, profilaktika subyektlarining faoliyatini yoritib boruvchi maxsus onlayn platformalar yoki mobil ilovalar yaratish orqali hisobotlarni elektron tarzda jamoatchilik e'tiboriga havola qilish imkoniyati yaratiladi. Bu platformalarda fuqarolar o'z taklif va shikoyatlarini ham kiritishi mumkin, bu esa ikki tomonlama samarali muloqotni ta'minlaydi. Shuningdek, profilaktika subyektlari tomonidan hisobot taqdim etish jarayonida fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va mahalliy kengashlar bilan hamkorlik qilish mexanizmlarini rivojlantirish zarur. Bu tashkilotlar aholi nomidan mansabdor shaxslarning faoliyatini tahlil qilish, ijobiy va salbiy tomonlarini ko'rsatib berish orqali jamoatchilik fikrini shakllantiradi. Xorijiy davlatlar, ayniqsa, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, AQSh va Janubiy Koreya tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat organlari mansabdor shaxslarining jamoatchilik oldida ochiq va tizimli hisobot berishi ularning mas'uliyatini oshiradi, korrupsiya holatlarini kamaytiradi, eng muhimi, aholining ishonchini mustahkamlaydi. Ushbu tajribalarni chuqur o'rganish, milliy sharoitga moslashtirib tatbiq etish O'zbekistonda ham hisobot berish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi. Shunday qilib, huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari mansabdor shaxslarining aholi oldida muntazam

30-Oktyabr, 2025-yil

hisobdor bo‘lishi, bu faoliyatni ochiq, tizimli va huquqiy asosda yo‘lga qo‘yilishi – jamiyatda qonun ustuvorligini ta‘minlash, fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini mustahkamlashda beqiyos rol o‘ynaydi.

XULOSA

Huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning natijadorligi va samaradorligi, avvalo, ushbu subyektlar faoliyatining shaffofligi, jamoatchilik oldida ochiqligi va doimiy hisobdorigiga bevosita bog‘liqdir. Maqolada olib borilgan tahlillar asosida aniqlanishicha, O‘zbekiston Respublikasida huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan ishlar tizimli olib borilayotgan bo‘lishiga qaramay, bu faoliyatning jamoatchilik bilan muloqoti, aholi bilan hisobdorlik asosida olib borilishi hali yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Bu esa, davlat organlari bilan fuqarolar o‘rtasidagi ishonchning to‘liq shakllanmasligiga, fuqarolarning huquqiy faolligi past bo‘lishiga va profilaktik chora-tadbirlarning kutilgan samarani bermasligiga sabab bo‘lishi mumkin. Amaldagi qonunchilikda huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlarining vakolatlari, vazifalari aniq belgilab berilgan bo‘lsa-da, ularning jamoatchilikka hisobot berish tartibi, shakli, mazmuni va davriyligi bo‘yicha aniq normalar mavjud emas. Bu esa, profilaktika faoliyatini yurituvchi mansabdor shaxslarning hisobdorigini ta‘minlashda bo‘shliq yuzaga kelishiga olib kelmoqda. Natijada, ayrim hollarda fuqarolar o‘z hududida huquqbuzarliklarning oldini olish borasida qanday ishlar amalga oshirilayotganidan xabarsiz qolmoqda, yoki noto‘g‘ri, tekshirilmagan ma‘lumotlarga asoslangan fikr yuritmoqda. Bu esa davlat organlari faoliyatiga nisbatan salbiy qarashlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Mazkur holatni o‘nglash, ya‘ni mansabdor shaxslarning aholiga hisobot berish faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi muhim xulosalar va tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, hisobot berish faoliyatining huquqiy asoslarini kuchaytirish zarur. Buning uchun “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun va boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritilib, har bir subyektning hisobot berish majburiyati aniq belgilab berilishi lozim. Xususan, mansabdor shaxslarning qaysi muddatlarda, qanday shaklda, kimlar oldida hisobot berishi, bu hisobotning tarkibi, ko‘rsatiladigan asosiy indikatorlar va baholash mezonlari qat’iy belgilanishi kerak.

Ikkinchidan, hisobot berish jarayoni institutlashtirilishi zarur. Bu degani, ushbu faoliyat faqat tashabbus asosida yoki yuqoridan berilgan topshiriq asosida emas, balki qonun bilan majburiy tartibda yo‘lga qo‘yilishi kerak. Masalan, har chorakda yoki har yilda mahalliy kengashlarda, fuqarolar yig‘inlarida, ommaviy eshituvlar orqali tegishli profilaktika subyektlari mansabdor shaxslari o‘z faoliyati yuzasidan omma oldida axborot berishi lozim.

Uchinchidan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish lozim. Davlat organlarining rasmiy veb-saytlari, ijtimoiy tarmoqlar, axborot portallari orqali hisobdorlik tizimi yaratilib, hisobotlar ochiq holda e‘lon qilinib borilishi kerak. Shu bilan birga, fuqarolarga o‘z fikr, taklif va e‘tirozlarini bildirish imkonini beruvchi raqamli platformalar yo‘lga qo‘yilishi lozim.

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Oktyabr, 2025-yil

To‘rtinchidan, fuqarolik jamiyati institutlari va OAV bilan hamkorlik mustahkamlanishi kerak. Jamoatchilik nazorati mexanizmlarini kuchaytirish orqali, profilaktika subyektlari faoliyatini mustaqil baholovchi tizim shakllantirilishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, mansabdor shaxslarning javobgarligini oshiradi, ularni o‘z vazifasiga mas’uliyat bilan yondashishga undaydi.

Beshinchidan, hisobot berish jarayonini baholash va rag‘batlantirish tizimi yo‘lga qo‘yilishi lozim. Mansabdor shaxslarning ochiq va tizimli hisobdorligi, jamoatchilik ishtirokida baholanib borilishi, eng yaxshi natija ko‘rsatgan subyektlar davlat tomonidan mukofotlanishi, bu tizimni ilgari surishda motivatsion omil bo‘lib xizmat qiladi.

Oltinchidan, hisobotlar mazmunan chuqur va raqamli asoslantirilgan bo‘lishi zarur. Har qanday hisobot faqatgina umumiy so‘zlar va statistik ko‘rsatkichlardan iborat bo‘lmasligi, balki bajarilgan aniq ishlar, erishilgan natijalar, aniqlangan muammolar va ularning yechimlari haqidagi tafsilotlarni o‘z ichiga olishi kerak.

Yettinchidan, xalqaro tajriba chuqur o‘rganilishi va milliy amaliyotga moslashtirilishi kerak. AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlarda davlat organlarining hisobdorligi institut sifatida shakllangan. Ularning hisobot berish tajribasi asosida O‘zbekiston sharoitida ham ijtimoiy talab va ehtiyojlarga mos tizim ishlab chiqilishi mumkin.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari mansabdor shaxslarining jamoatchilik oldida muntazam hisobdorligi – bu shunchaki ma’muriy jarayon emas, balki jamiyatning huquqiy ongi va madaniyatini oshiruvchi, davlat va fuqarolar o‘rtasidagi ishonch ko‘prigini mustahkamlovchi, demokratik boshqaruvning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu tizimni to‘laqonli yo‘lga qo‘yish orqali O‘zbekistonda huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish, fuqarolarning davlatga nisbatan ishonchini mustahkamlash, eng muhimi, jamoat xavfsizligini ta’minlash borasida muhim qadamlar tashlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 180 b.
2. Xalimov S. “Huquqbuzarliklar profilaktikasining huquqiy asoslari”. – Toshkent: Adolat, 2016. – 220 b.
3. Jo‘rayev A., Tursunov N. “Jamoatchilik nazorati va uning huquqiy mexanizmlari”. – Toshkent: Huquq, 2020. – 145 b.
4. Mamatqulov M. “Davlat boshqaruvida ochiqlik va hisobdorlik tamoyillari: nazariya va amaliyot”. // “Ijtimoiy fikr” ilmiy jurnali, 2021, №2, 45–53-betlar.
5. OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development). Government at a Glance 2021. Paris: OECD Publishing. DOI: <https://doi.org/10.1787/1c258f55-en>
6. UNODC (United Nations Office on Drugs and Crime). Handbook on the Crime Prevention Guidelines. United Nations Publication, 2010.